

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 10 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Муҳаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳаёти ва ҳуқуқ университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурашулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирилар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jale Özlem, Murodaliev Rakhmonali, Askarov Ollabergan</i> ABOUT ARCHAEOLOGICAL SURVEY IN TASHKENT REGION (2022)	9-17
<i>Хомиджонова Мафтунахон</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ СЕВЕРО-ЗАПАДНОЙ УСТРУШАНЫ, В ЧАСТНОСТИ БАСЕЙНА ЗАМИНСУ	18-26
<i>Nig'matullayev Ibrohim</i> SHIA JAMOALARINING MUQADDAS JOYLARI VA ZIYORATLARI	27-32
<i>Arslonbekov Nursulton</i> ZIYOVUDDINXON IBN ESHON BOBOXONNING ARAB MAMLAKATLARIDA BO'LGAN DASTLABKI SAFARI VA UNING NATIJALARI	33-36
<i>Nasirillayeva Nodirabegim</i> ABDULLA NOSIROVNING "TURON" KUTUBXONASIDAGI FAOILAYATI	37-42
<i>Tuyev Fazliddin</i> NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH BORASIDA O'ZARO TASHQI HAMKORLIK ALOQALARI	43-47
<i>Davlatova Shoirra</i> TURKISTON SOVET AVTONOMIYASINING E'LON QILINISHI VA O'LKADA BOLSHEVIKLARNING BOSHQARUV TASHKILOTLARI	48-53
<i>Muminov Azizbek</i> TURIZM SOHASIDA EKOLOGIK BILIM VA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH	54-59
<i>Abdullayev Elbek</i> AMIR TEMUR VA MUZAFFARIYLAR DAVLATI O'RTASIDA MUNOSABATLARNI YO'LGA QO'YILISHI	60-63
<i>Turg'unov Sherzod</i> NAMANGAN VILOYATI SANOAT KORXONALARIDA MEHNATKASHLAR UCHUN YARATILGAN SOG'LIKNI SAQLASH, SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH VA MADANIY – MA'RIFIY SOHADAGI SHAROITLAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR	64-71

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Berdaliyeva Muxabbatxon</i> O'ZBEKISTONDA UY-JOYNI MOLIYALASHTIRISHNI TARTIBGA SOLISH: IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARI	72-79
<i>Ergashev Jahongir</i> KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHATLARI	80-84
<i>Imomov Xolmurod</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	85-90

Атамуродов Шерзод, Самадов Салоҳиддин

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ

НАЗАРИЙ- УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ 91-99

Қодиров Музаффар

РАҚОБАТ МУҲИТИДА ТАШКИЛОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ

САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ 100-108

Amiriddinova Muslima

ANALYSIS OF TOURISM SERVICE TYPE AND GENERAL CATERING TO INCREASE THE

TRAFFIC AND TRAFFIC 109-114

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Tazabay

DARVIN VA MARKS TA'LIMOTI INSON BORLIG'INI OBYEKTIV

TUSHUNTIRISHNING XULOSASI SIFATIDA 115-119

Sultanov Og'abek

SHARQDA YOSHLAR MAS'ULIYATIGA DOIR FALSAFIY QARASHLAR RIVOJI 120-123

Tursunkulova Shaxnoza

HADISLARDA INSONNING GO'ZAL FAZILATLARI XUSUSIDA 124-127

Khushbokov Oybek

THE "TEACHER" PHENOMENON IN THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL

SPACE OF CULTURE 128-134

Tojaliyev Abduqosim

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASH

TIZIMINING INNOVATSION ISTIQBOLLARI 135-139

Sadullaeva Matluba

NUMBER AS THE ESSENCE OF THINGS: PYTHAGOREAN PHILOSOPHY 140-145

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Mirzakamolova Maftuna

ASSOSIATIV LINGVISTIKA VA UNING XUSUSIYATLARI 146-150

Temirova Hayotxon

DIALECT CLASSIFICATION AND PHONETIC CHARACTERISTICS OF UZBEK DIALECTS

IN THE SURKHANDARYA REGION 151-155

Surmilova Elena

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF TONGUE TWISTERS:

A LITERATURE REVIEW 156-164

Mahmudova Nigoraxon

PRAGMALINGVISTIKADA IKKI YO'NALISH 165-169

Ergasheva Gulshan

NEMISCHA FRAZEOLOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI (INSON

INTELLEKTUAL SALOHİYATINI IFODALOVCHI IBORALAR MISOLIDA) 170-174

Masharipova Valentina

DIFFICULTIES CLASSIFYING PARALINGUISTIC MEANS IN A LITERARY TEXT 175-182

Ibragimova Gulshan

O'ZBEK SHOIRLARI VA ADIBLARI IJODIDA CHINOR DARAXTI OBRAZI 183-188

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Халиқулов Комолиддин*“COMITAS GENTIUM” ДОКТРИНАСИННИНГ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУД
ҚАРОРЛАРИНИ ТАҲ ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШГА ТАЪСИРИ 189-195*Yakubov Xushnudbek*

TERRORIZMNING KELIB CHIQISH SABAB VA OMILLARI 196-202

*Mutalov Oybek*O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SHARTNOMALARNING HUQUQIY TARTIBI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 203-208*O'razbayev Laziz*DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN MUALLIFLIK HUQUQI
OBYEKTLARINING HAMDA XIZMAT ASARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI 209-214*Arslonqulova Aziza*INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI XALQARO XUSUSIY HUQUQDA TARTIBGA
SOLISH MASALALARI 215-219**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Saidova Kamola*КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ РОЛИ ШКОЛЫ И УНИВЕРСИТЕТА В ВОСПИТАНИИ
ЗАПАДНОЙ МОЛОДЕЖИ 220-225*Jumaniyozova Muhayyo*OLIY TA'LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHGA
KREATIV YONDASHUVNING ZARURATI 226-232*O'smanova Diloromxon*BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH VA TASHXISLASHNING ASOSIY MEZONLARINI ANIQLASH 233-240*Nasriddinov Dadaxon*OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN
AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR 241-250*Fayziyeva Dildora, Rajabova Gulchexra*BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 251-259*Marhabo Sayfulloyevna*BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID ASARLARIDA MILLIY
TARBIYA MUAMMO SIFATIDA 260-267*Юсупов Лутфуллоҳ*

КРЕАТИВ ТАЪЛИМНИ ЖАМИЯТ РАВНАҚИДАГИ АҲАМИЯТИ 268-272

Norboyev Farhod

INNOVATSIYALAR MANBALARI: AKTYOR-TARMOQ NAZARIYASI 273-278

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

REASONS AND FACTORS OF TERRORISM

Yakubov Xushnudbek Sheribboevich

senior lecturer of the department
of operational-search activities of the
Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the causes and factors of the emergence of terrorism, complex general and special criminological measures in the socio-economic, political, legal, spiritual and organizational fields to eliminate these causes and conditions, some psychological aspects of terrorism, the main aspects of individual and socio-psychological approaches and views.

Keywords: Causes, factor, instinctivism, social and individual psychological concepts, behaviorism, collectivism, aggressiveness, complex, destructive, incentive.

TERRORIZMNING KELIB CHIQISH SABAB VA OMILLARI

Yakubov Xushnudbek Sheribboevich

O'zbekiston Respublikasi IIV
Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada terrorizmning kelib chiqish sabab va omillari, ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va tashkiliy sohalarida kompleks umumijtimoiy va maxsus kriminologik tadbirlar, terrorizmning ba'zi psixologik jihatlari, individual va ijtimoiy-psixologik yondashuv va qarashlarning asosiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sabab, omil, instinktivizm, ijtimoiy va individual psixologik konsepsiyalar, bixeviorizm, kollektivistik, agressiv, kompleks, buzg'unchilik, destruktiv, stimul.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N30>

Kirish. Terrorizm ijtimoiy-salbiy hodisa sifatida davlat va huquq ravnaqiga nihoyatda yomon ta'sir ko'rsatadi. Bu jinoyat, shuningdek, ijtimoiy va milliy guruhlar o'rtasida ishonchsizlik va nafrat uyg'otib, ba'zan butun bir avlod davomida bartaraf etilishi qiyin bo'lgan nizolarni keltirib chiqaradi. Terrorizm xavfsizlik va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka jiddiy tahdid soladi, mamlakatdagi tinch va osoyishta hayotni izdan chiqaradi, ko'plab begunoh insonlarning bevaqt o'limiga yoki hayoti xavf ostida qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, davlat va fuqarolarning mol-mulkiga katta zarar yetkazilib, mamlakatdagi moddiy va ma'naviy boyliklar yo'q qilinadi, inson huquq va erkinliklari buziladi va keng miqyosda notinchlik kelib chiqadi..

Jumladan, 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 16 nafar begunoh shaxs halok bo'lgan, 130 nafar shaxs turli darajadagi tan jarohati olgan, 700 mln. so'mdan ortiq miqdorda moddiy zarar yetkazilgan¹, 50 dan ziyod ma'muriy va uy-joy binolari zararlangan[1; 9-b]. 2004-yil 29-martda Toshkent shahrida va Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004-yil 30-martda Toshkent viloyati Qibray tumanida, 2004-

yil 1-aprelda Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004-yil 30-iyulda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 38 nafar begunoh shaxs halok bo'lgan[2; 251-252-b]. 2005-yil 13-mayda Andijonda sodir etilgan terrorchilik oqibatida 169 kishi halok bo'lgan, qurolli hujum davomida terrorchilar 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to'pponcha, 231 ta granata va qurollarni qo'lga kiritgan, shuningdek, ular jazoni ijro etish muassasalaridan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuborgan[3; 3-b].

So'nggi yillarda terrorizm siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy jinoiy maqsadlarda aholini qo'rqitish hamda davlat, hokimiyat va boshqaruv organlariga ruhiy bosim o'tkazishga qaratilgan zo'ravonlikning o'ta kuchaygan va xavfli ijtimoiy-siyosiy hodisasiga aylangan. Terrorchilik harakatlari, masalan, odamlarni garovga olish, davlat va jamoat arboblari, diniy yoki boshqa guruhlar hamda xorijiy davlatlar va tashkilotlar vakillarining hayotiga tahdid solish, yirik obyektlarni bosib olish, portlatish yoki insonlar hayoti, sog'lig'i va mulkiga tahdid qilish mamlakat tinchligini jiddiy ravishda izdan chiqaradi.

Terrorizm xavfli ijtimoiy-siyosiy hodisaga aylanib borayotgan bir davrda, uning ijtimoiy tizimida yangidan-yangi sabablar paydo bo'lishi muqarrar. Bu illat bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish uchun, avvalo, jamiyatda ularning paydo bo'lishi va o'sishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash, keyin esa ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va tashkiliy sohalarida keng qamrovli umumijtimoiy va maxsus kriminologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish zarur.

Sabab va omil tushunchalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib ushbu hodisaning rivojlanish tamoyillarini bashorat qilish va uning oldini olishga qaratilgan ishlar rejasini tuzish mumkin emas. Avvalo, terminologik chalkashlikka yo'l qo'ymaslik uchun jinoyatchilikning sabab va omillari kabi tushunchalarni aniqlab olishimiz muhim. Bu tushunchalar ba'zan sinonim sifatida qo'llanilsa-da, bu har doim to'g'ri emas, chunki ular o'rtasida ma'no jihatidan ayrim farqlar mavjud.

Ba'zi mutaxassislar jinoyatchilikning 200 dan ortiq omillari borligini aytadilar. Terrorizm, shu jihatdan, istisno emas va uning ko'p sonli sabablari kelib chiqishi bo'yicha ham, ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha ham juda xilma-xil xususiyatlarga ega[4; 27-b].

Shu bois ularni mantiqiy va aniq chizma ko'rinishidagi qat'iy tizim doirasiga kiritish muhim. Terrorizmning psixologik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-tarixiy sabablarini ajratish mumkin. Ba'zi mualliflarning fikricha, terrorizm kelib chiqishi uchun nafaqat obyektiv, balki muayyan tipdagi shaxslarning, siyosiy zo'ravonlik va mutaassiblik (fanatizm)ning o'ziga xos an'analari asosida shakllanadigan muayyan tipdagi ongning paydo bo'lishi kabi subyektiv shart-sharoitlar ham kerak. Bunda, obyektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi, ammo har doim ham yetarli bo'lmagan omildir. Chunki "bu shart-sharoitlar ko'pchilik mamlakatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin, "o'z-o'zidan yuzaga keladigan" siyosiy terrorizm esa ularning ayrimlaridagina kelib chiqadi"[5; 93-b].

O'zbekistonda terrorizm sabablarini o'zaro bog'liq guruhlar majmui sifatida ko'rib chiqish zarur. Bunga mamlakatimizda terrorizmga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan diniy va boshqa xususiyatlar kiradi. Ushbu sabablar ko'pincha barqaror bo'lib, uzoq vaqt davomida mavjud bo'ladi, odatda kam sonli va sun'iy ta'sir ko'rsatish qiyin bo'lgan fundamental sabablar guruhi sifatida qaraladi. Bu guruh bir qator aniq kriminogen omillarni – ekstremizmning doimiy generatorlarini o'z ichiga oladi. Bunday sabablarni oldindan portlaydigan mina bilan taqqoslash mumkin, chunki ular mustaqil mavjud bo'lib, mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bo'lganda yashirin qoladi. Ular, shuningdek, tutab yotgan, lekin istalgan paytda yong'in chiqarishi mumkin bo'lgan o'choqlar sifatida mavjud. Bu sabablar odatda qulay sharoitlar, masalan, siyosiy inqirozlar, iqtisodiy va ijtimoiy larzalar yuzaga kelganda paydo bo'ladi.

Terrorizmning "joriy" va doimiy ravishda o'zgarib turuvchi, chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator sabablar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: 1) demografik muammolar; 2) qurol savdosi; 3) ommaviy madaniyat; 4) millatlararo munosabatlardagi keskinliklar; 5) ko'plab

masalalarning qonun darajasida tartibga solinmaganligi va boshqa omillar. Ushbu sabablarning amaliy ifodasi, masalan, qurol-yarog'ning talon-taroj qilinishi (Andijon voqealarida) orqali namoyon bo'ladi.

Kelib chiqish sabablarni ikkiga, ya'ni amaliy (operatsion) jihatdan ichki (ichki jarayonlardan kelib chiqqan), va tashqi (tashqaridan kirib kelgan) sabablarga ajratish mumkin. Terrorizmning ijtimoiy va siyosiy manbalarini bir-biridan alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Chunki ular o'zaro bog'liq holda yaxlitlikni hosil qiladi. Bular juda jadal bo'lib, muayyan jamiyat hayotida rivojlanishning turli bosqichlarida yuzaga keladigan murakkab jarayonlar bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Terrorizmning ba'zi psixologik jihatlariga e'tibor berish muhimdir. U agressiya shakli bo'lganligi sababli, uning kelib chiqishi va sabablarini psixologik nuqtai nazardan tushuntirish alohida shaxs yoki ijtimoiy guruhning turli xil tajovuzkor xulq-atvorini o'rganish bilan bevosita bog'liqdir. Bu hodisaga individual va ijtimoiy psixologiyada ko'p e'tibor berilgan. Bunga Erix Fromm, Karen Xorni, Konrad Lorens, Zigmund Freyd, B. F. Skinner va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida guvohlik beriladi. Ushbu tadqiqotlar jinoyatlarning chuqur motivlarini, jinoiy xatti-harakat mexanizmini va terrorchi shaxsini tushunishga yordam beradi.

Biroq, ushbu nazariyalarning hech biri terrorizmni to'liq tushuntira olmaydi yoki uni yaxlit ravishda izohlash imkoniyatiga ega emas. Shunga qaramay, ularning har biri mazkur hodisaning ba'zi psixologik jihatlarini ma'lum darajada ochib berishi mumkinligini yodda tutish zarur.

Muhokama. Ushbu yondashuvlarni tahlil qilishni osonlashtirish uchun ularni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: instinktivizm, turli ijtimoiy va individual psixologik konsepsiyalar, shuningdek, bixeviorizm. Birinchi ikkita yondashuv, insonning o'z instinktlaridagi biologik jihatlar yoki psixologik ichki kechinmalari va mayllaridan kelib chiqadigan tajovuzkor ko'rinishlar sabablarini aniqlashga intiladi. Bixevioristlar esa zo'ravonlikning ijtimoiy sabablariga e'tibor qaratadilar. XX asrda keng tarqalgan bixeviorizm oqimi vakillarining fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan, ong va aqliy qobiliyat nasldan naslga o'tadi. Ular tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor qilib, tarbiyaning shaxs xususiyatlariga ta'sir etishda samarasiz deb hisoblaydilar. Odam qanday sifatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish natijasida bu sifat va xususiyatlar rivojlanadi, degan fikrni ilgari suradilar.

Instinktivizmning yorqin vakili Konrad Lorens va ko'p darajada psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd bo'lgan. Freyd tajovuzkorlikni inson ong osti sohasining ikkiyoqlamaligi, ya'ni unda insonning xatti-harakatini belgilab beruvchi hayotga moyillik va o'limga moyillik mavjudligi bilan izohlagan[6; 84-b].

Freydning fikricha, Edip kompleksiga asoslanadigan o'lim instinkti libido, eros va o'zini o'zi saqlash instinkti bilan ziddiyatga kirishadi. Terrorizmning psixologik ildizlarini tushunish uchun Freydning o'lim instinkti qisman libidoning kuchlari bilan neytrallashtirilishi, qisman esa turli zo'ravonlik harakatlarida moddiylashadigan tashqi tajovuz o'zaniga qaratilishi mumkin. Agar buning iloji bo'lmasa, tajovuzkorlik insonning o'ziga qarshi qaratiladi, ya'ni autoagressiya shakliga kiradi. Bu esa muqarrar tarzda o'zini nobud qilish va yo'q qilishga olib keladi. Ba'zi bir terrorchi-kamikadzelarning bir qarashda bema'ni ko'rinadigan o'zini o'zi o'ldirish harakatlarini ana shu holat bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, Freyd ongsizlikning instinktiv tajovuzkor tamoyillari bilan madaniyat talablari o'rtasidagi aniq nizoni ko'rsatgan. Madaniyat "yuqori darajadagi Men"[7; 439-b] – qandaydir ideal, axloq, vijdon yordamida individda azaldan mavjud bo'lgan tajovuzga tashnalikni bostiradi va shu tariqa spontan ko'rinishlarni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, Zigmund Freyd konsepsiyalari va Konrad Lorensning kengroq g'oyalari umumiy jihatlariga egadir. Konrad Lorens insonda xuddi hayvonda bo'lgani kabi azaldan unga berilgan hamda yashash uchun kurashning tabiiy ko'rinishi bo'lgan tur ichidagi agressiya instinkti mavjud, deb hisoblagan. Biroq hayvonlarda,

olimning fikricha, ushbu hayotiy energiyani ifodalovchi zaruriy, ayni vaqtda juda xavfli instinkt undagi buzg'unchi ibtidolarni tormozlash mexanizmi bilan muvozanatga keltiriladi. Ushbu mexanizm uni o'z turiga mansub hayvonlarga nisbatan qat'iy chegaralaydi va bir-birini batamom yo'q qilishiga imkon bermaydi. Insonda esa, u tabiatan deyarli qurollanmagan va himoyasiz bo'lgani bois (shu sababli inson himoyalani uchun sun'iy vositalar izlashi – qurol-yarog' yaratishi va uni doimo takomillashtirishiga to'g'ri kelgan), o'ziga o'xshaganlarni bema'ni o'ldirishning oldini oluvchi bu mexanizm juda kam rivojlangan[8; 54-b].

Tormozlash mexanizmining o'rnini bosuvchi narsa – aqlga asoslangan axloq, bu esa buzg'unchi impulsni to'liq bostira olmaydi, chunki inson bu bilan instinkt orqali bog'langan. Bunga qo'shimcha ravishda, texnologiya shunchalik tez rivojlanayapti-ki, axloqiy talablar va ularning ichki o'zlashtirilishi (internalizatsiyasi) uning rivojlanishiga yetib bora olmayapti. Keskinlikni yumshatish usullarini izlash natijasida paydo bo'ladigan agressivlik esa bizning irodemizga bo'ysunmay, insonning o'ziga qarshi qaratilishi mumkin.

Bu kabi fikr, ko'p jihatdan, nevrozlar va uning oqibatlarini sifatida sodir bo'ladigan ko'plab zo'ravonlik jinoyatlari, shu jumladan bir guruh terrorchilar va yolg'iz terrorchilar tomonidan amalga oshiriladigan, o'ta shafqatsiz terrorchilik harakatlarining ichki, ba'zan chuqur yashirin harakatlantiruvchi kuchlarini izohlashga yordam beradi. Bu esa, ko'plab odamlar ruhiyatida autoagressiv va suitsidal tamoyillar mavjudligini tushunishga imkon beradi. Masalan, Kavkazdagi bir qator xalqlarda zo'ravonlikni tiyish uchun qonli qasos institutining shakllanishi kuzatilgan.

Biroq bu agressivlikning o'zini bartaraf etmagan, balki o'zini o'zi yo'q qilish istiqboliga chek qo'yib, uni o'z-o'zidan boshqa qabilalar tomonga yo'naltira boshlagan. Shu bilan birga, qonuniy qasosning o'zini ham eskilik sarqiti sifatidagina emas, balki Lorens yozgan instinktlarga asoslangan agressivlik ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Karen Xorni agressivlikning muhim individual-psixologik, ko'pincha ongsiz manbalarini ko'rsatib o'tgan. Olima zo'ravonlikning turli ko'rinishlari, jumladan terrorchilik xususiyatiga ega bo'lgan ko'rinishlariga olib keladigan agressivlik, nevrotik shaxsga xos bo'lgan va har xil yo'nalishlardagi nevrotik moyilliklar to'qnashuviga asoslanadigan nevroz oqibati bo'lishi mumkin, deb hisoblagan [9; 12-b]. U nevrozni "ulardan qo'rqish va himoyalani, shuningdek har xil yo'nalishdagi tamoyillar ziddiyatining murosali yechimini topishga urinish" tufayli kelib chiqadigan ruhiy buzilish sifatida talqin etgan. Ichki, ong osti intilishlari, istaklari, mayllarining ushbu to'qnashuvini Xorni bazal to'qnashuv (nizo) deb atadi. Xorning konsepsiyasi terrorizmning individual motivlarini yaxshiroq tushunish uchun ko'p narsa beradi (odatda terrorchilar murakkab ichki psixologik ziddiyatlar mavjudligidan azob chekadilar, bu esa ularning jinoiy harakatlari qanday bo'lishini ko'p jihatdan belgilab beradi), (shu bois bu masalaga terrorchilar shaxsiga bag'ishlangan bo'limda to'xtalish joiz).

Avstriyalik mashhur psixiatr Alfred Adler zo'ravonlik va keng ma'nodagi jinoyatchilik sabablarini "bolalik vaziyatlari"da, ya'ni insonga tug'ilgan paytidan boshlab noto'g'ri tarbiya berish bilan bog'liq muammolarda ko'radi. E'tibor va g'amxo'rlikning yo'qligi yoki yetishmasligi, avtoritar majburlov yoki qo'pol hukmronlik ham, inijliklariga erk berish va tantiq qilib o'stirish ham mavjud dunyoda yashashga va muqarrar nizolarni hal qilishga mutlaqo tayyor bo'lmagan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Norasolik kompleksi bu odamlarni nihoyatda jizzaki, tajovuzkor, hissiyotlarining nazorat qilib bo'lmaydigan portlashiga moyil qilib qo'yadi. Ya'ni, "ijtimoiy hayotga moslashmaganlik norasolik hissi va ustunlikka intilishning oqibatidir. "Norasolik kompleksi" va "ustunlik kompleksi" terminlari qaror topib bo'lgan yomon ijtimoiy adaptatsiya faktini ifodalaydi"[10; 152-b]. Atrofdagilar yoki o'ziga nisbatan kuch ishlatish bilan bog'liq tajovuzkor harakatlar ana shu sababdan kelib chiqadi. Kuch ishlatish bilan bog'liq jinoyatlarning subyektiv, shaxsiy sabablarini "Jinoyatchi va jinoyatlarni tergov qilish psixologiyasi" tadqiqotining muallifi ham ko'rsatadi. Xususan, mutaxassislar bu sabablar sifatida shaxsning ijtimoiy begonalashuvi (yotsirashi) va jamiyatga moslashmaganligini ta'kidlaydilar. Ular noqulay oila muhitida tug'ilganidan boshlab (ota-

onaning sovuq, e'tiborsiz, ba'zan esa shafqatsiz munosabatlari yoki g'ayriijtimoiy muhitda) shakllanadi.

Freydning shogirdi va "chuqur" psixologiyaning asosiy vakillaridan biri bo'lgan Karl Yung zo'ravonlikning ijtimoiy psixologik omillariga e'tibor qaratdi. U individual ongsizlik holati bilan bir qatorda undan yuqori turadigan, "imkoniyatdagi, ammo individual emas, balki umuminsoniy va hattoki umumhayvoniy tasavvurlarning ota meros mulki bo'lgan va individual psixikaning asosi hisoblangan"[11; 125-b] jamoaviy ongsizlik holati mavjudligini ta'kidlagan. Yungning fikricha, arxetiplar deb ataladigan shakllar, ya'ni obrazlar, belgilar va tasavvurlar orqali o'z ifodasini topgan tarixdan avvalgi bosqichlar (fazalar), hozirgi zamon insoni ruhiyatining anglanmaydigan tarixiy qatlamlarini namoyon etadi. Bu arxetiplar ko'p jihatdan fikrlarimiz, his-tuyg'ularimiz va xatti-harakatlarimizni belgilab beradi. Yung arxetiplar qalbning (jon, ruhning) xtonik qismini, ya'ni ruh tabiat bilan bog'liq bo'lgan qismini tashkil qiladi, deb hisoblaydi. Arxetiplar tashqariga yorilib chiqadi va voqelikni boshqarishga kirishadi. Odamlar irratsional yashash va bu hayotda iloji boricha to'liq va mukammal namoyon bo'lish uchun shakllar izlashni boshlaydilar, bu jarayonda allaqachon o'tgan tarixiy bosqichlar birdan dolzarb tus oladi. Jamiyat yana o'z tuzilishining eng sodda shakllariga qayta boshlaydi, ammo bu shakllar zamonaviy texnologik yutuqlari bilan ajoyib tarzda uyg'unlashadi.

Olim, nihoyatda ratsional bo'lgan XX asrda irratsionalizmning portlashini – kommunizm va fashizm, dohiyiparastlik, diniy ekstremizm, ommaviy zo'ravonlikning keskin kuchayishi va shu kabi hodisalar bilan izohlaydi. Bunday konsepsiya etnik to'qnashuvlar kuchayishini tushunishda juda samarali ko'rinadi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun diniy yoki etnik ekstremistlarning, masalan, chechen ekstremistlarining mafkurasiga murojaat etish kifoya. Ularning barcha faoliyati, jumladan, dinga tayangan holda yaratilgan miflar va tarixdan avvalgi an'analarga asoslangan terrorchilik harakatlari aslida ijtimoiy voqelikni ibtidoiy, majusiy va urug'-qabilaviy shakllariga qaytarishga qaratilgan.

Natijalar. Xalqaro huquq, o'z taqdirini belgilash va mustaqillik haqidagi bayonotlar, aslida, niqob sifatida va ongsizlikning chuqur qatlamlarida yashiringan narsalarni ratsionallashtirishdan iborat. Bu odamlar, Yungning ta'biri bilan aytganda, tafakkurning alohida, "arxetipik" turini namoyon etadilar. Taniqli terrorchi Salman Raduev o'z intervyularidan birida shunday degan edi: "Bizni odamlar, ayniqsa ruslar, qo'limizdan qancha ko'p halok bo'lishmasin, tushunishlari qiyin... Biz shu qadar mutaassibmizki, aftidan bizni bilmaydiganlar uchun nonormal odamlarni eslatamiz. Biz nonormal odamlarmiz, ammo telba emas...". Bunday psixologik va abadiy manbalar terrorizmida muhim qarorlar qabul qilishda inobatga olinishi zarur.

Karen Xorni, Zigmund Freyd va Konrad Lorensdan farqli ravishda, Erix Fromm ijtimoiy ekstremizm sabablarini izohlashda Yungga ergashib, asosan ijtimoiy-psixologik omillarga tayangan va o'z nazariyasini yaratgan. Birinchidan, u Freydning o'lim instinkti haqidagi ta'limotini shu nuqtai nazardan rivojlantirdi va yangiladi, bunda diqqatini aynan uning ijtimoiy jihatlariga qaratdi. Bu esa etnik terrorizmni yaxshiroq tushunish uchun material beradi, uning u yoki bu xalqlar yoki ijtimoiy guruhlar muhitida keskin ko'payishi mumkinligi haqida taxminlar qilishga imkon yaratadi. Fromm ta'limotining bugungi vaziyatni tushunish uchun ikkinchi muhim jihati shundaki, o'zi yashab turgan zamon voqeligi va tarixiy ma'lumotlarining tahliliga tayanib, umuman jamiyatda yoki uning alohida qatlamlarida muayyan paytlarda buzg'unchi va tajovuzkor harakatlar bo'lishi mumkinligini ta'kidladi. Bundan tashqari, Fromm zo'ravonlikni keltirib chiqarishda ijtimoiy frustratsiya alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tdi. Bunda inson hayotining tashqi sharoitlari (masalan, ish haqi olishning qonuniy manbaini yoki mutaxassislik bo'yicha ish topish mumkin emasligi) unga o'z qobiliyatlarini to'liq ishga solish, namoyon etish imkonini bermaydi: "Hayotga intilish qanchalik yorqin namoyon bo'lsa, hayot qanchalik to'liqroq ro'yobga chiqsa, buzg'unchi tamoyillar shunchalik kuchsiz bo'ladi. Hayotga bo'lgan intilish qanchalik bostirilsa, buzg'unchilikka intilish shunchalik kuchli bo'ladi.

Buzg'unchilik – yashalmagan hayot natijasi. Hayotni ezuvchi individual yoki ijtimoiy shart-sharoitlar boshqalarga va o'ziga nisbatan har xil buzg'unchi tamoyillar kelib chiqadigan o'ziga xos hovuzni to'ldiruvchi buzg'unchilikka ishtiyoq keltirib chiqaradi"[12; 156-157-b].

Frommning ulkan merosidagi deyarli eng yaxshi asari bo'lmish "Inson destruktivligining anatomiyasi" nomli asari shaxs va ijtimoiy guruhlar xislati bo'lmish tajovuz va tajovuzkorlikning turli shakllarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Uning tajovuzkorlik to'g'risidagi ta'limotining to'rtinchi muhim jihati Adolf Gitler tarjimai holini tahlil qilish misolida ko'rib chiqilgan nekrofil shaxs konsepsiyasidan iborat.

Nekrofiliya biofilianing qarama-qarshi tomoni sifatida, o'lik, mexanik va sun'iy narsalarga juda kuchli moyil bo'lishda namoyon bo'ladi. Bu esa atrofdagilarni o'ldirish va yo'q qilish istagiga olib keladi. Bunday destruktiv (buzg'unchi) jihatlar ustunlik qiladigan shaxs "nekrofil tipidagi shaxs" deb ataladi, va nekrofillar har doim aniq ko'rinishda bo'lmasligi mumkin. Ular orasida zolimlar, qotillar, terrorchilar va jallodlar mavjud. Bunday shaxslar bo'lmasdan, hech qanday terrorchilik tizimi paydo bo'lmagan bo'lardi.

Instinktivizmga va qisman psixoanalizga butunlay qarama-qarshi ravishda, muhit nazariyasining vakillari inson xatti-harakatini faqat ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi, deb ta'kidlaydilar. Ular insonning xatti-harakati tug'ma emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadi, deya uqtiradilar.

Bu inson taraqqiyoti yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri bo'lgan agressivlikka ham taalluqlidir. Yangi bixeviorizmning yorqin vakili bo'lgan B.F.Skinnerning ta'kidlashicha, insonning xatti-harakati uning his-tuyg'ulari yoki mayllari yoxud qandaydir boshqa subyektiv holatlari bilan emas, balki atrof muhiti, yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Xatti-harakat, Skinner ta'limotiga ko'ra, "stimul-reaksiya" prinsipi bo'yicha, ya'ni istagancha boshqarish mumkin bo'lgan tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ijobiy stimullar tizimini to'g'ri qo'llab (boshqaruvchi xulq-atvor texnologiyasi) inson, hatto tug'ma tabiati azaldan belgilab qo'yilgan hayvonlar xatti-harakatini ham nihoyatda o'zgartirib yuborishi mumkin[13; 95-b]. Ushbu nazariyaning pedagogika, tarbiya, psixoterapiya kabilar uchun amaliy ahamiyati ana shundadir.

Xulosa. Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa G'arb tadqiqotlarida, terrorizmning boshqa ko'plab xilma-xil izohlarini uchratish mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar Yevropa tajribasiga asoslanib, terrorizmning sababi sifatida chuqur shaxsiy va ekzistensial xususiyatga ega bo'lgan xohish-istaklarni ajratib ko'rsatadilar. Bu xohish-istaklar orasida moslashuvchanlikdan qochish, yolg'izlikdan qutulish, zerikishdan yiroqlashish va industrial-byurokratik sivilizatsiyaning shafqatsizligini yengishga intilish kabi jihatlar mavjud. Ekstremizm esa yoshlarni "kollektivistik" va maksimalistik qarorlar qabul qilishga, shuningdek, o'ziga tortadigan ideal saroblari bilan jalb etadi.

Yuqorida keltirilgan individual va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar ro'yxati tugallanmagan. Bu murakkab hodisa bo'lib, ularning hech biri alohida holda terrorizmning bir jihatini to'liq qamrab tushuntira olishi qiyin. Biroq, bu yondashuvlar mazkur hodisani har tomonlama tahlil qilish uchun asosli va muhim poydevor yaratadi. Psixologik omillar, jadal ijtimoiy-siyosiy sabablardan farqli ravishda, bir qadar barqarordir va har qanday turdagi jinoyat, shuningdek istalgan davr uchun dolzarb bo'lib qoladi. Ularsiz, sabablar mexanizmini to'g'ri tushunish va natijada, ularning oldini olish tizimini tuzishning imkoniyati yo'q.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Қодиров Р. Диний экстремизм ва терроризм билан боғлиқ жиноятларни тергов қилишнинг айрим хусусиятлари (амалий қўлланма). – Т.: Ўқитувчи, 2000. – Б. 9.
2. Ғойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи: Монография. – Т., 2009. – Б. 251– 252.
3. Халқ сўзи. – 2005. – 17 май.

4. Белявский Д. Г. Криминологические детерминанты терроризма. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., – 2006. – С. 27 // <http://www.lawlibrary.ru/izdanie61109.html>
5. Эфиров С.А. Логика и футурология левого экстремизма. — С. 93.
6. Фрейд З. По ту сторону принципа удовольствия // Психология бессознательного. – М., – 1990. – С. 84.
7. Фрейд З. Я и ОНО // Психология бессознательного. — С. 439.
8. Лоренц К. Агрессия. — М., – 1994. – С. 54.
9. Хорни К. Наши внутренние конфликты. Конструктивная теория невроза // Психоанализ и культура: Избранные труды Карен Хорни и Эриха Фромма. — М., — С. 12.
10. Адлер А. Наука жить. — Киев, 1997. — С. 152.
11. Юнг К. Г. Проблемы души нашего времени. — М., 1994. — С. 125.
12. Фромм Э. Бегство от свободы. — М., 1995. — С. 156–157.
13. Каримский А.М. Скиннер: социальный бихевиоризм // Современная американская социология. — М., 1994. — С. 95.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).